
XUSHXABAR!



Yurtimizda umumta'lim maktabini bitirayotgan o'quvchilar o'rtasida respublika chempionlarini munosib taqdirlash uchun O'zbekiston chempionati musobaqalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilarni munosib taqdirlash, ularga qo'shimcha grant asosida oliy o'quv yurtiga kirish imtiyozini beruvchi musobaqada viloyatimiz terma jamoasi safida Qo'shtepa tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining uch nafar bitiruvchilari ham ishtirok etishdi.

Ushbu musobaqada qatnashgan Nilufar Xabibullayeva, Shoxsanam Olimjonova, Mohichexra Xakimjonovalar sovrinli o'rinni qo'lga kiritishib, muddatidan oldin oliy ta'limga kirish imkoniyatini qo'lga kiritishdi.

Prezidentimizning sportga berayotga e'tiborlari tufayli 2019-2020-o'quv yilidan buyon 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11 nafar bitiruvchilari oliy ta'limga grant asosida qabul qilindi.

Biz ham qo'shtepalik sportchi qizlarimizni g'alabalari bilan muborakbod etamiz!

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-05-26 10:23:48